

YOSHLARNING NIKOHGA MA'NAVY TAYYORGARLIGI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLAR

Panjiyeva Nargiza Botirovna

Termiz davlat universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti Psixologiya ta'lim yo'nalishi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21305920>

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlarning nikohga ma'naviy tayyorgarligi hamda unga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar o'rganilgan. Tadqiqotda yoshlarning nikoh va oilaviy hayotga munosabati, nikoh mas'uliyatini anglash darajasi hamda gender xususiyatlari tahlil qilingan. Empirik tadqiqot natijalari asosida nikohga ma'naviy tayyorgarlikning shakllanishida oilaviy muhit, tarbiya va shaxsiy omillarning ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: nikoh, yoshlar, ma'naviy tayyorgarlik, oilaviy qadriyatlar, ijtimoiy-psixologik omillar, gender xususiyatlari.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы духовной готовности молодежи к браку и социально-психологические факторы, влияющие на её формирование.

В исследовании изучены отношение молодых людей к браку и семейной жизни, уровень осознания ответственности в брачных отношениях, а также гендерные особенности. На основе эмпирических результатов выявлено значение семейной среды, воспитания и индивидуально-психологических особенностей в формировании духовной готовности к браку.

Ключевые слова: брак, молодежь, духовная готовность, семейные ценности, социально-психологические факторы, гендерные особенности.

Abstract. This article examines young people's spiritual readiness for marriage and the socio-psychological factors influencing its formation. The study analyzes young people's attitudes toward marriage and family life, their understanding of marital responsibility, and gender-specific characteristics. Based on empirical findings, the importance of family environment, upbringing, and individual psychological factors in developing spiritual readiness for marriage has been identified.

Keywords: marriage, youth, spiritual readiness, family values, socio-psychological factors, gender characteristics.

Bugungi kunda jahonda oila va nikoh institutida kechayotgan ijtimoiy-demografik o'zgarishlar yoshlarning oilaviy hayotga bo'lgan munosabatini yangi mazmun bilan boyitmoqda.

Globalashuv jarayonlari, urbanizatsiya, ta'lim tizimining takomillashuvi, mehnat bozoridagi raqobatning kuchayishi hamda shaxsiy rivojlanish va o'zini o'zi ro'yobga chiqarishga bo'lgan ehtiyojning ortishi nikohga oid qarashlarning transformatsiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu bois yoshlarning nikohga psixologik tayyorgarligi va oilaviy qadriyatlar tizimini o'rganish zamonaviy psixologiya hamda oila sotsiologiyasining dolzarb ilmiy yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Nikoh – erkak bilan ayolning teng huquqli, erkin va ixtiyoriy ittifoqi bo‘lib, u fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida tuziladi va oila tuzish maqsadiga xizmat qiladi.

Nikohni qayd etishda guvohlarning soni ikki kishidan kam bo‘lmasligi kerak. Faqatgina diniy rasm-rusumlarga binoan tuzilgan nikoh huquqiy ahamiyatga ega emas. Nikoh tuzish ixtiyoriydir. Nikoh tuzish uchun bo‘lajak er-xotin o‘z roziligini erkin ifoda etish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Nikoh tuzishga majbur qilish taqiqlanadi. Amaldagi qonun hujjatlarida nikoh yoshi belgilab qo‘yilgan.¹

Qarang: O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy sudishlarini yuritish to‘g‘risidagi qodeksning 23-bobi, O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonuni tarifiga ko‘ra:

14-modda. Nikoh tuzishning ixtiyoriyligi to‘g‘risidagi bandda keltirilishicha “Nikoh tuzish ixtiyoriydir” deb belgilangan.² Mazkur norma nikoh faqat bo‘lajak er-xotinning erkin xohish-irodasi va o‘zaro roziligi asosida vujudga kelishini nazarda tutadi hamda shaxsning nikoh masalasida mustaqil tanlov qilish huquqini huquqiy jihatdan kafolatlaydi.

Mavjud ilmiy adabiyotlar va empirik tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, yoshlarning nikohga oid ustanovkalari biologik yoki yosh omillari bilangina emas, balki oilaviy muhit, sotsializatsiya jarayoni, gender rollari, iqtisodiy sharoit hamda individual hayotiy maqsadlar ta‘sirida shakllanadi. Ayniqsa, oiladagi farzandning tug‘ilish tartibi va oilaviy maqomi shaxsning mas‘uliyat hissi, oilaviy rollarni qabul qilishi hamda kelajakdagi nikohga bo‘lgan munosabatini belgilovchi muhim ijtimoiy-psixologik determinantlardan biri hisoblanadi.

Empirik kuzatishlar natijalari oilada katta farzand bo‘lgan qizlarda nikohga nisbatan ijobiy munosabat va nisbatan erta oila qurishga moyillik ko‘proq uchrashini ko‘rsatadi. Mazkur holat ularning oilaviy sotsializatsiya jarayonida kichik farzandlarga g‘amxo‘rlik qilish, ota-onaga ko‘maklashish hamda oilaviy mas‘uliyatni erta o‘zlashtirishi bilan izohlanadi. Natijada ularda oilaviy qadriyatlarni qabul qilish darajasi va nikohni shaxsiy hayotning muhim bosqichi sifatida baholash tendensiyasi nisbatan yuqori shakllanadi. Professor G. B. Shoumarov tahriri ostidagi “oila psixologiyasi” darsligida nikohga yetuklik tushunchasi o‘z navbatida o‘ta murakkab va nisbiy tushunchadir deya ta‘kidlanadi. Shu bilan bir qatorda nikohdan oldin bir qator omillar bo‘linishini, ushbu omillar tufayli nikoh hodisasi vujudga kelishini tushuntiradi.

Nikoh oldi omillari:

1. Oilaviy hayotga yetukligi.
2. Oila qurish motivlari.
3. Nikohgacha tanishish muddati.
4. Nikoh qurish yoshi.
5. Nikoh qurish shartlari.
6. Oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari.³

¹ Profi University "Oila Institutini Mustahkamlashning Ijtimoiy-Psixologik Muammolari" Mavzusidagi Xalqaro Ilmiy-Amaliy Anjuman Materiallari To‘plami 31-may Toshkent – 2024 781-b[1]

² LexUZ [2]

³ Professor G. B. Shoumarov tahriri ostida “oila psixologiyasi” darsligi Toshkent-2010 121-b [3]

Shuningdek, oiladagi yagona yoki katta o'g'il farzandlarda ham nikoh qurishga nisbatan yuqori motivatsiya kuzatilishi mumkin. Bu holat ularning o'zini oilaning davomchisi va kelgusida oilaviy mas'uliyatni o'z zimmasiga oluvchi shaxs sifatida identifikatsiya qilishi bilan bog'liq bo'lib, oilaviy rollarni erta qabul qilishiga xizmat qiladi.

Biroq zamonaviy jamiyatda yoshlarning nikoh yoshiga oid qarashlarida sezilarli diversifikatsiya kuzatilmoqda.

Ayrim qizlar an'anaviy qadriyatlar ta'sirida 17–18 yoshda nikoh qurishni ma'qullasalar, boshqa bir qismi oliy ta'lim olish, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish, iqtisodiy mustaqillikka erishish hamda shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqarishni ustuvor vazifa sifatida baholamoqda.

Natijada nikohni 25–27 yosh yoki undan keyingi davrga rejalashtirish tendensiyasi tobora kengroq namoyon bo'lmoqda. Mazkur holat ayollarning ta'lim va mehnat faoliyatidagi imkoniyatlarining kengayishi, gender tengligi tamoyillarining mustahkamlanishi hamda zamonaviy jamiyatda individual muvaffaqiyatga yo'naltirilgan qadriyatlarning kuchayishi bilan izohlanadi.

Shunday qilib, yoshlarning nikohga oid qarashlari oilaviy sotsializatsiya, gender xususiyatlari, tug'ilish tartibi, ijtimoiy tajriba va individual hayotiy strategiyalar o'zaro ta'sirida shakllanadigan murakkab ijtimoiy-psixologik tizimni ifodalaydi.

Nikoh yoshiga doir qarashlarda kuzatilayotgan transformatsiyalar, avvalo, yoshlarning ta'lim olish, kasbiy o'sish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash hamda shaxsiy rivojlanishga bo'lgan intilishlari bilan uzviy bog'liqdir.


Ilmiy adabiyotlar tahlili nikohning mustahkamligi va oilaviy munosabatlar barqarorligi ko'p jihatdan shaxsning nikohga ma'naviy-psixologik tayyorgarligi darajasi bilan belgilanishini tasdiqlaydi.

Shu nuqtai nazardan, yoshlarning oilaviy hayotga oid tasavvurlari, nikoh mas'uliyatini anglash darajasi, oilaviy qadriyatlarni interiorizatsiya qilish xususiyatlari hamda nikohga psixologik tayyorgarligining tarkibiy komponentlarini kompleks o'rganish bugungi kunda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlar natijalari yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik mexanizmlarini takomillashtirish, oilaviy munosabatlar barqarorligini mustahkamlash hamda sog'lom va farovon oilalarni shakllantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishda muhim metodologik manba bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur holatlardan kelib chiqib, tadqiqotimizda yoshlarning nikohga ma'naviy tayyorgarlik darajasini empirik jihatdan o'rganish maqsad qilib olindi. Tadqiqotda jami 60 nafar respondent ishtirok etdi.

Ulardan 32 nafari yigitlar va 28 nafari qizlardan iborat bo'ldi. Tadqiqot jarayonida ishtirokchilarning nikohga ma'naviy tayyorgarlik darajasi tegishli psixodiagnostik metodika yordamida aniqlanib, olingan natijalar matematik-statistik usullar asosida tahlil qilindi.



1-rasm.

Mazkur holatlardan kelib chiqib, tadqiqotimizda yoshlarning nikohga ma'naviy tayyorgarlik darajasini empirik jihatdan o'rganish maqsad qilib olindi. Tadqiqotda jami 60 nafar respondent ishtirok etdi. Ulardan 32 nafari yigitlar va 28 nafari qizlardan iborat bo'ldi. Tadqiqot jarayonida ishtirokchilarning nikohga ma'naviy tayyorgarlik darajasi tegishli psixodiagnostik metodika yordamida aniqlanib, olingan natijalar matematik-statistik usullar asosida tahlil qilindi.

Ko'rsatkichlar		Respondentlar soni	Maksimal ko'rsatkich	Minimal ko'rsatkich	O'rtacha arifmetik qiymat	Mediana	Moda	Standart og'ish
Nikohga manaviy tayyorgarlik	yigitlar	32	89	39	56,50	55,5	51; 57	11,50
	qizlar	28	75	41	58,36	57,5	71	10,70

Birlamchi statistik tahlil

Jadvalimiz natijalari yigitlar va qizlarning nikohga ma'naviy tayyorgarlik darajasi bo'yicha o'ziga xos xususiyatlarni aks ettiradi. Tadqiqotda ishtirok etgan yigitlarning nikohga ma'naviy tayyorgarlik ko'rsatkichi o'rtacha 56,50 ballni tashkil etgan bo'lsa, qizlarda ushbu ko'rsatkich 58,36 ballni tashkil etdi. O'rtacha qiymatlar o'rtasidagi farq katta bo'lmasa-da, qizlarda nikohga ma'naviy tayyorgarlik darajasining nisbatan yuqoriroq ekanligi kuzatiladi.

Psixologik va pedagogik tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, qizlar oilaviy munosabatlar, oila a'zolari o'rtasidagi hissiy yaqinlik va oilaviy qadriyatlarga nisbatan sezgirroq munosabatda bo'lishadi.


Shu sababli ularda nikoh va oilaviy hayot bilan bog'liq masalalarga qiziqish hamda ma'naviy tayyorgarlik darajasi nisbatan yuqoriroq shakllanishi mumkin. Tadqiqot natijalarida aniqlangan ko'rsatkichlar ham mazkur ilmiy qarashlarni ma'lum darajada tasdiqlaydi.

Yigitlarda maksimal ko'rsatkichning 89 ball, minimal ko'rsatkichning esa 39 ball bo'lishi ularning javoblarida individual tafovutlar kengroq ekanligini ko'rsatadi. Qizlarda esa maksimal ko'rsatkich 75 ballni, minimal ko'rsatkich 41 ballni tashkil etdi. Bu holat qizlar guruhida natijalarning nisbatan barqarorroq ekanligini anglatadi. Mediananing yigitlarda 55,5 va qizlarda 57,5 bo'lishi ham qizlar guruhida yuqoriroq natijalar ustunligini ko'rsatadi.

Yigitlar guruhida moda bir nechta qiymatlar (51 va 57) bilan ifodalangan bo'lsa, qizlarda moda 71 ballni tashkil etdi. Mazkur holat qizlar orasida nikohga ma'naviy tayyorgarlikning nisbatan yuqori darajadagi ko'rsatkichlari ko'proq uchrashini anglatadi. Standart og'ish ko'rsatkichlari ham ushbu fikrni tasdiqlaydi. Jumladan, yigitlarda standart og'ish 11,50 ga teng bo'lib, qizlardagi 10,70 ko'rsatkichiga nisbatan yuqoriroqdir. Bu esa yigitlar natijalarining tarqoqligi qizlarnikiga qaraganda ko'proq ekanligini bildiradi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari nikohga ma'naviy tayyorgarlikning gender jihatdan ayrim farqlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Biroq mazkur farqlar keskin emasligi sababli, nikohga ma'naviy tayyorgarlikning shakllanishida jins omili bilan bir qatorda oilaviy muhit, tarbiya, ijtimoiy tajriba va shaxsning individual xususiyatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Metodikamiz tahlilini diagramma orqali ifodaladik



Metodika natijalari diagramma asosida tahlil qilindi. Diagrammada yoshlarning nikohga ma'naviy tayyorgarlik darajasi gender kesimida, ya'ni yigitlar va qizlar guruhlari bo'yicha qiyosiy tarzda ifodalangan. Olingan empirik natijalar shuni ko'rsatadiki, respondentlarning aksariyat qismida nikohga ma'naviy tayyorgarlik o'rta darajada shakllangan.

Xususan, yigitlar guruhida o'rta darajadagi ko'rsatkich 17 nafar respondentni tashkil etib, umumiy guruhning 53,1 foizini qamrab olgan bo'lsa, qizlar guruhida ushbu daraja 14 nafar respondentda (50,0%) namoyon bo'ldi.

Mazkur natija yoshlarning aksariyatida nikoh va oilaviy hayotga oid tasavvurlar shakllanganligini, biroq mazkur jarayon hali to'liq barqaror psixologik tayyorgarlik darajasiga yetmaganligini ko'rsatadi.

Tahlil natijalarida yuqori darajadagi nikohga ma'naviy tayyorgarlik qizlar guruhida 6 nafar respondentda (21,4%), yigitlar guruhida esa 5 nafar respondentda (15,6%) qayd etildi. Ushbu farq qizlarning oilaviy munosabatlar, nikoh mas'uliyati va kelajakdagi oilaviy rollarga nisbatan psixologik tayyorgarligi biroz yuqoriroq ekanligini ko'rsatishi mumkin. Bunday holat oilaviy qadriyatlarni qabul qilish, emotsional munosabatlarga e'tibor va oilaviy mas'uliyatni anglash xususiyatlari bilan bog'liq bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

Shuningdek, past darajadagi ko'rsatkichlar yigitlarda 10 nafar (31,3%), qizlarda esa 8 nafar (28,6%) respondentda aniqlandi. Mazkur natijalar ayrim respondentlarda nikoh tushunchasi, oilaviy mas'uliyat va bo'lajak oilaviy hayotga nisbatan yetarlicha shakllangan qarashlar mavjud emasligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, diagrammada aks ettirilgan natijalar nikohga ma'naviy tayyorgarlikning shakllanishida gender omili muayyan darajada ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Biroq aniqlangan tafovutlar keskin xarakterga ega emas. Bu esa nikohga tayyorgarlik jarayoni faqat jins xususiyatlari bilan emas, balki shaxsning oilaviy tajribasi, tarbiya muhiti, ijtimoiy munosabatlari hamda individual-psixologik xususiyatlari bilan belgilanadigan ko'p omilli jarayon ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosa

Mazkur tadqiqotimizning natijalari asosida yoshlarning nikohga ma'naviy tayyorgarligi ularning oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari, nikoh mas'uliyatini anglash darajasi hamda shakllangan ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bilan bog'liq holda namoyon bo'lishi aniqlandi.

O'tkazilgan empirik tahlil natijalari respondentlarning nikohga ma'naviy tayyorgarlik darajasi asosan o'rta ko'rsatkichda shakllanganligini ko'rsatdi.

Tadqiqotimizda yigitlar va qizlarning nikohga ma'naviy tayyorgarlik ko'rsatkichlari qiyosiy jihatdan o'rganildi. Olingan natijalarga ko'ra, qizlarda nikohga ma'naviy tayyorgarlik darajasi (58,36 ball) yigitlarga (56,50 ball) nisbatan biroz yuqoriroq ekanligi qayd etildi.

Shuningdek, yuqori darajadagi ko'rsatkichlar qizlar guruhida ko'proq namoyon bo'lgan bo'lsa, har ikki guruhda ham o'rta darajadagi tayyorgarlik ustunlik qildi. Bu holat yoshlarning aksariyatida nikoh va oilaviy hayotga oid asosiy tasavvurlar mavjudligini, biroq mazkur tayyorgarlik darajasi hali to'liq shakllangan barqaror holatga ega emasligini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalarining tahlili shuni ko'rsatadiki, nikohga ma'naviy tayyorgarlikning shakllanishida gender omili ma'lum darajada aks etsa-da, mazkur jarayonni faqat jins xususiyati bilan izohlash mumkin emas. Nikohga tayyorgarlikning shakllanishida oiladagi tarbiya muhiti, farzandning oiladagi o'rni, ota-ona munosabatlari namunasi, shaxsning hayotiy maqsadlari va ijtimoiy tajribasi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, zamonaviy yoshlarning nikoh haqidagi qarashlarida an'anaviy oilaviy qadriyatlar bilan bir qatorda ta'lim olish, kasbiy rivojlanish va shaxsiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarishga intilish kabi omillar ham namoyon bo'lmoqda.

Bu esa nikohga ma'naviy tayyorgarlik masalasini yoshlarning ijtimoiy-psixologik rivojlanishi bilan bog'liq holda kompleks o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari nikohga ma'naviy tayyorgarlik yosh shaxsning oilaviy qadriyatlarini o'zlashtirishi, mas'uliyat hissi va kelajakdagi oilaviy hayotga munosabatining muhim ko'rsatkichi ekanligini tasdiqladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 464 b.
2. Andreyeva G.M. Sotsialnaya psixologiya. – Moskva: Aspekt Press, 2009. – 363 b.
3. Profi University "Oila Institutini Mustahkamlashning Ijtimoiy-Psixologik Muammolari" Mavzusidagi Xalqaro Ilmiy-Amaliy Anjuman Materiallari To'plami 31-may Toshkent – 2024 781-b [1]
4. G'oziyev E.G'. Psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2019. – 252 b.
5. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2007.
6. LexUZ [2]
7. Shoumarov G'.B. va boshqalar. Oila psixologiyasi. – Toshkent: Sharq, 2010. –121-b.[3]